

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/6-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.M.Kaxarova, D.A.Muxammadaminova	
Dars samaradorligini oshirishda til o'rganuvchilarning o'zlashtirish jarayonini baholash	538
M.V.Nasridinov	
Buyruq nutqiy aktlarining tilshunoslikdagi ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'liqligi	542
Sh.H.Nuritdinova	
Online english language learning and its promotion	547
M.M.Nurmatova	
Development of intercultural communicative competence	551
M.M.Nurmatova	
The importance of "Face" phenomenon in uzbek and english communication	553
Z.Sh.Pazilova	
Nemis taufen (suvga cho'mish marosimlari) leksik birligining lingvokulturologik tadqiqi	556
D.R.Ubaydullayeva	
Nutq so'zlashda qo'rquvni yengish: sabablar va takliflar	559
Ш.Ё.Усмонова	
Анализ семантики ландшафтных терминов в узбекском и английском	562
языках и особенности их употребления	562
Sh.M.Yusufjonova	
Milliy mentalitet va idiomalar: memis va o'zbek frazalozizmlarining madaniy ta'siri	566
Sh.M.Yusufjonova	
Nemis va o'zbek frazalozizmlarida xalqning dunyoqarashi: madaniyat va tilshunoslik asosida	570
S.A.Yusupova, D.A.Ganiyeva	
Hurmat konsepti va stilistik vositalarning o'zaro uyg'unligi	574
F.B.Abduraximova	
Ingliz va o'zbek tillarida okkazional so'zlarning lingvokulturologik xususiyatlari	577
A.O.Oxunov	
Ingliz tilida wh his-hayajon gaplarining turlari va sintaktik vazifalari	582
D.K.Jumaniyazov	
Developing language skills and cultural competence in english through films	586
Д.Ш.Ибрагимова	
Эффективность использования театрализации в обучении иностранного языка	589
Д.Х.Муротова	
Лингвокультурологическое исследование речевого акта извинения	596
F.B.Abduraximova	
O'zbek va ingliz tillarida affiksatsiya usulida so'z yasaliishining o'ziga xos xususiyatlari	599
Sh.F.Latipov	
Lingvistik bo'shliqni to'ldirishning 6 xil yo'li	604
Г.Т.Галимуллина	
Сопоставительный анализ фразеологических единиц с компонентом драгоценные камни и металлы английского и русского языков во фразеосемантическом поле «Доброта»	608
M.A.Ahundjanova	
Foreign languages and their teaching methodologies	611
F.T.Raximova	
Nutqiy aktlarni ifodalovchi leksik vositalar	615
Sh.Z.Xolmatov	
The history of argots' origin in english speaking countries, Russian and Uzbekistan	618
T.R.Madinakhan	
Kinoyaning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari ifodasiga nazariy yondashuvlar	623
Z.A.Qochqorova	
O'zbek va ingliz tillarida "To'y – wedding" mavzusidagi paremiologik birliklarning qiyosiy tadqiqi	628
M.B.Yusupova	
O'zbek va ingliz tillarda evfemizatsiyalashgan maqol hamda matallarda milliy madaniy kod tahlili	633



UO'K: 81'373.7:811.512.133

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA "TO'Y – WEDDING" MAVZUSIDAGI PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING QIYOSIY TADQIQI**СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ НА ТЕМУ «СВАДЬБА» В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ****COMPARATIVE ANALYSIS OF PAREMIOLOGICAL UNITS ON THE THEME "WEDDING" IN THE UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES****Qochqorova Zulfizar Abduxamid qizi** 

Farg'ona davlat universiteti, Ingliz tilini o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola o'zbek va ingliz tillarida "To'y" mavzusidagi paremiologik birliklar (maqol va matallar)ni qiyoslab o'rganishga bag'ishlangan. Unda "To'y" konseptini ifodalovchi maqol va matallar semantik-struktur jihatdan tahlil qilingan, natijada ushbu birliklarning izomorfik (o'xshash) va allomorfik (farqli) xususiyatlari ochib berilgan.

Аннотация

В данной статье проводится сравнительное исследование паремииологических единиц (поговорок и пословиц) на тему «свадьба» в узбекском и английском языках. Исследование включает анализ структуры и семантики пословиц, выражающих концепт «свадьба» и результаты показывают наличие изоморфных (сходных) и алломорфных (отличных) характеристик.

Abstract

This article presents a comparative study of paremiological units (proverbs and sayings) on the theme of "wedding" in Uzbek and English. The study analyzes the structural and semantic features of proverbs and sayings reflecting the concept of "wedding" and the findings highlight isomorphic (similar) and allomorphic (different) features.

Kalit so'zlar: maqol, matal, paremiologik birliklar, izomorfik va allomorfik xususiyatlar.**Ключевые слова:** поговорка, пословица, паремииологических единицы, изоморфные и алломорфные характеристики.**Key words:** proverb, saying, paremiological units, isomorphic and allomorphic features.**KIRISH**

Ma'lumki, bugungi kunda lingvokulturologiya bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarning soni sezilarli darajada oshgan. Xususan, turli tillarni chog'ishtirib o'rganishda ana shu til foydalanuvchilarining madaniyatini ham qiyoslab, chuqur tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, paremiologik birliklar xalqning madaniyatini aks ettirib beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sababdan ham turli tillar va madaniyatlarni qiyoslab o'rganishda maqol va matallarning o'rni beqiyosdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Shu kunga qadar, turli tillardagi paremiologik birliklar (PB) qiyoslanib, ularning o'ziga xos xususiyatlari ko'plab tilshunoslar tomonidan o'rganilgan (Sh. Rahmatullaev, Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov, T. Mirzaev, M. Afzalov, M. Sodiqova va boshqalar). Biroq turli tillarda "to'y" konseptini ifodalaydigan PB lar alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan. Biz ushbu risolada ingliz va o'zbek tillarida "to'y" konseptini verballashtiruvchi ayrim PB larni qiyosiy asnoda o'rganishga va ilmiy yoritishga harakat qilamiz. Avvalo, paremiologik birliklar borasidagi ayrim fikrlarga to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Paremiologik birliklar haqida gap borar ekan, maqol va matalni bir – biridan farqlash muhimdir. Xususan, turli lug'atlar va adabiyotlarda quyidagicha ta'riflar keltirib o'tilgan:

TILSHUNOSLIK

❖ Maqol – hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand – nasihat mazmuniga ega bo'lgan ixcham, obrazli va hikmatli ibora. Matal – 1) tugal ma'no ifodalaydigan obrazli ibora, hikmatli so'z; 2) qissa, masal (O'TIL);

❖ Maqol – xalq og'zaki ijodi janri; qisqa va lo'nda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli gap. Matal – muayyan hayotiy hodisani aniq va to'g'ri belgilab beradigan obrazli ifoda, ibora (O'zbekiston milliy ensiklopediyasi)

❖ Matal – hayotiy voqelikni ixcham shaklda emotsional – ekspressiv baho bilan tasvirllovchi ifodalar. Matallar nutqda hukmning qismi vazifasida bo'lishi, hamma vaqt ko'chma ma'no anglatishi kabi xususiyatlari bilan maqollardan farqlanadi (A. Xojiev);

❖ Grammatik jihatdan gap holda shakllangan, xalq donishmandligi mahsuli bo'lgan barqaror birikma maqol deyiladi. Matal deganda to'g'ri ma'no ifodalaydigan obrazli ifoda, tugal shaklga ega bo'lmagan hikmatli birikma nazarda tutiladi. Maqol tugal fikr bildirishi, matal esa ergash gapli qo'shma gap tarkibidagi sodda gapdek "chala" fikr ifodalashi bilan o'zaro farqlanadi (O'. M. Xoliyov);

❖ Proverb – a short sentence, usually known by many people, stating something commonly experienced or giving advice; Saying – a well – known and wise statement, which often has a meaning that is different from the simple meanings of the words it contains (CALD);

❖ Proverb is a short familiar epigrammatic saying expressing popular wisdom, a truth or a moral lesson in a concise and imaginative way (I. V. Arnold).

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda shuni aytishimiz mumkinki, maqol va matallar bir – biridan shakliga va mazmuniga ko'ra farqlanadi, ya'ni matallar tugal shaklga ega bo'lmay, doimo ko'chma ma'noda qo'llanadigan birliklar bo'lsa, maqollar tugal shakl va fikrga ega bo'lib, har doim ham ko'chma ma'noda qo'llanmaydigan birliklardir.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ushbu o'rinda, tadqiqotimiz obyekti bo'lmish "to'y" konseptini verballashtiruvchi paremiologik birliklarni struktur va ma'no jihatiga ko'ra turlarga ajratib qiyoslab tahlil qilish lozim.

Demak, "To'y" konseptini ifodalovchi PBlarni **tuzilishiga ko'ra** quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

A) Sodda gap bilan ifodalangan (bir predikativli) PB lar:

O'zbek tilida: To'y siltovi bilan to'n bitar; To'y bor uy tutunidan ma'lum; To'yning "bo'ldi – bo'ldi"si qiziq; To'yning boshi – boshlanguncha; To'yning ovozi karnayidan ma'lum;

Ingliz tilida: One wedding brings another; Always sample a maidens charms before the wedding; Bachelor's fare: bread, cheese and kisses; Wedlock is a padlock; Three rings of marriage are the engagement ring, the wedding ring and the suffering; The most dangerous food is wedding cake.

B) Qo'shma gap bilan ifodalangan (bikomponentli) PBlar:

Shu o'rinda, komponentlarning mazmun jihatidan munosabati, ularning tuzilishi va birikish yo'llariga ko'ra quyidagi 3 guruhga ajratib taxlil qilishni lozim topdik:

1. Bog'langan qo'shma gapli PB lar:

O'zbek tilida: O'g'ilga bir kerak bo'lsa, qizga ming kerak; Onasini ko'rib, qizini ol;

Ingliz tilida: Keep your eyes wide open before marriage and half shut afterwards; The women cries before wedding and the man after; Marry first and love will follow;

2. Ergashgan qo'shma gapli PB lar:

O'zbek tilida: Toz taranguncha, to'y tarqar; To'yga borsang, to'yib bor; Qizni erkiga qo'ysang, o'yinchiga tegar; Boyga kelin bo'lguncha, kambag'alga qiz bo'l;

Ingliz tilida: Be sure before you marry of a house wherein to tarry; Maidens should be meek until they be married; Happy is a bride that the sun shines on; Marry your daughters betimes, lest they marry themselves;

3. Bog'lovchisiz qo'shma gapli PB lar:

O'zbek tilida: Kelinning keldisi yaxshi, to'yning bo'ldisi yaxshi; To'yda so'z ber baxshiga, xaridor bo'l yaxshiga; O'g'ilning to'yi o'yin, qizning to'yi qiyin; Kambag'alning to'yi to'kin bo'lar, boyning to'yi yupun bo'lar; Kerilganning to'yiga bor, maqtanganning – uyiga.

Ingliz tilida: Marry in May, rue for eye; Marry in haste, repent at leisure; Like mother, like daughter; Marry your son when you will, your daughter when you can.

D) Aralash qo'shma gap bilan ifodalangan (polikomponentli, 3 predikativli) PBlar:

O'zbek tilida: O'tinning yashisi yantoq, xotinning yaxshisi qalmoq, qaysi nomardning ishi – yor ustiga yor olmoq?

Ingliz tilida: *Marriage halves our griefs, doubles our joys and quadruples our expenses;*

E) Tekstema bilan ifodalangan (polikomponentli, 3 dan ortiq predikativli) PBlar:

O'zbek tilida: Xotining yaxshi bo'lsa, to'yga bormoq ne darkor, xotining yomon bo'lsa, a'zaga bormoq ne darkor; O'lis yerga quda bo'lsang, tuya – tuya osh kelar, yaqin yerga quda bo'lsang, tuya – tuya so'z kelar; Qarindoshdan qarz olma, qarindoshga qarz berma, qarindoshdan qiz olma, qarindoshga qiz berma;

Ingliz tilida: *One for sorrow, two for mirth, three for wedding, four for birth.*

Ko'rinadiki, har ikkala tilda ham sodda, qo'shma (bog'langan, ergashgan va bog'lovchisiz), aralash turdagi va tekstema holatida uchrovchi maqollar mavjud.

Quyida "To'y" konseptini ifodalovchi PBlarni **ma'no jihatiga ko'ra** turlari keltiriladi:

a) Maslahat. O'zbek tilida: To'yga borsang burun bor, burun borsang o'rin bor, To'yga borsang to'yib bor, yomonliging qo'yib bor, To'yga borsang to'yib bor, To'y to'ningni kiyib bor, To'yga borsang to'yib bor, bo'z haltangni qo'yib bor, to'ydin oldin nog'ora qoqma; to'yda so'z ber baxshiga, xaridor bo'l yaxshiga. Ushbu maqollar "Jamoat yig'iladigan joyga – to'yga, mehmondorchilikka "almoyi – jalmoyi" bo'lib borma, durustroq kiyimingni kiyib bor, jamoat yig'ilgan joyda yomonlik qilma nihoyatda odob saqla; to'y – ziyofatda ovqatni bo'kguningcha orqa - o'nginga qaramay yema; odam ko'p bo'lganligi sababli joysiz qolma" kabi nasihat qilinganda aytiladi (Hikmatnoma, 403).

Ingliz tilida: *Always sample a maidens charms before the wedding; Marry in haste, repent at leisure; Be sure before you marry of a house wherein to tarry; Keep your eyes wide open before marriage and half shut afterwards.* Ushbu maqollarda bir – birini yaxshi o'rganmay turib, shoshilib to'y qilishlikdan qaytariladi va bu masalag ehtiyotkorlik bilan yondashish kerakligiga urg'u beriladi. *Marry your daughters betimes, lest they marry themselves; Marry your son when you will, your daughter when you can.* Ushbu maqollarda esa qiz bolani turmushga berishga alohida e'tibor berish kerakligi aytiladi. Bu maqollarga o'zbek tilida "Qizingni erkiga qo'ysang, o'yinchiga tegar" ekvivalent sifatida keltirib o'tilishi mumkin.

b) To'y voqealari. Bu turdagi maqollarda to'y marosimlarida ko'p uchraydigan holatlarga urg'u berilgan. Masalan, o'zbek tilida: To'yning "bo'ldi - bo'ldi"si qiziq, kelinning "keldi – keldi"si qiziq; To'y siltovi bilan to'n bitar; To'yganga – to'y, to'ymaganga – tomosha; To'yning boshi – boshlanguncha; To'y oshi – to'polon oshi; To'yning ovozi kamayidan ma'lum; To'yi bor uy tutunidan ma'lum; To'ying bo'lsa, tomoshago'y topilar; Bol bo'lsa – chivin, to'y bo'lsa – yig'in; To'y o'g'illining o'g'lidin, qizlining qizidan qaytar; To'ylikning to'yi o'tar, to'ysizning – kuni; To'y bo'lsa yaxshi bo'lar, yigit – qizning baxti kular va h.k.

Ingliz tilida: *One wedding brings another; Bachelor's fare: bread, cheese and kisses; Marry first and love will follow; Maidens should be meek until they be married; Happy is a bride that the sun shines on; Marriage halves our griefs, doubles our joys and quadruples our expenses; Wedlock is a padlock.*

d) To'y tashvishlari. Ushbu maqollarda esa, asosan, to'y qilishdagi ayrim qiyinchiliklar yoritib beriladi. Masalan, o'zbek tilida: To'y ginasiz bo'lmas; To'ylikning to'ycha tashvishi bor, uylikning uycha tashvishi bor; O'lganiga chidasang, qo'y qil, yeganiga chidasang to'y qil; Xotin olmoqqa cho't kerak, botmon dahsar et kerak; to'yim o'zdi, to'nim to'zdi; tuyaday qiz uzatib, tugmaday jaz yemadim; O'g'ilning to'yi o'yin, qizning to'yi qiyin.

Ingliz tilida: *Three rings of marriage are the engagement ring, the wedding ring and the suffering; The most dangerous food is wedding cake; Marry first and love will follow; Marriage halves our griefs, doubles our joys and quadruples our expenses.*

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, maqol va matallar nafaqat tilga tegishli, balki ana shu tilda so'zlashuvchi millatning madaniyatini ham aks ettiradi. Boshqacha qilib aytganda, ular ijtimoiy – madaniy an'analarni eng ishonchli tarzda aks ettiradigan oyna deb hisoblanadi. Maqol va matallarda milliy tafakkurning ko'rinishi, shuningdek milliylikning o'ziga xos xususiyatlari yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Yuqoridagi misollarning har birida til egasi bo'lmish millatning betakror lisoniy – madaniy xususiyatlari ham o'z aksini topgan.

TILSHUNOSLIK

Masalan, o'zbek va ingliz tillarida bir xil yoki o'xshash bo'lgan maqollar sifatida "O'g'ilning to'yi o'yin, qizning to'yi qiyin" va "Marry your son when you will, your daughter when you can" maqollarini, "Turmush – musht" va "Wedlock is pedlock" maqollarini yoki "Onasini ko'rib qizini ol" va "Like mother, like daughter" kabi maqollarini keltirib o'tish mumkin. Shu bilan birgalikda, ingliz tilidagi "Marry in May, rue for eye" maqoli "May oyida turmush qurish faqatgina afsuslanishga olib keladi" degan tushunchani beradi, yoki "The women cries before wedding and the man after" maqolida "Ayol to'ydan avval, erkak esa to'ydan keyin yig'laydi" degan ma'no kelib chiqadi. Bunday mazmundagi maqollar o'zbek tilida uchramaydi va, albatta, o'zbek tilidagi "To'y oshi – to'polon oshi" va "To'y tegishliniki, Hayit hammaniki" kabi maqollar ingliz tilida uchramaydi. Ko'rinadiki, qiyoslanayotgan tillarda ayrim bir – biriga o'xshash ma'noni ifodalovchi paremiologik birliklar bilan bir qatorda, bir – birini takrorlamaydigan maqol va matallar ham uchraydi, va shuni aytilish mumkinki, ana shu birliklar lingvokulturemalarga yorqin misol bo'la oladi.

O'rganishlarimiz shuni ko'rsatadiki, ikki tilda "to'y" konseptini ifodalovchi PB lar o'xshash (izomorfik) va noo'xshash (allomorfik) xususiyatlarga egadir.

Izomorfik jihatlari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- Har ikki tilda tuzilishiga ko'ra bir xil bo'lgan (sodda, qo'shma, aralash) paremiologik birliklar mavjud;

- Qiyoslanayotgan tillarda bir xil yoki bir – biriga yaqin ma'noni anglatuvchi PB larni uchratishimiz mumkin: Marriage is a lottery – Umr savdosi qiyin savdo; Like mother, like daughter – Onasini ko'rib, qizini ol.

Allomorfik xususiyatlar:

- Maqollardagi ega – kesim tartibi har ikki tilda farqlanadi, masalan: The women cries before wedding and the man after – SVO, To'y ginasiz bo'lmas – SOV;

- Maqollarda so'zlarning bog'lanishida turlicha yondashiladi, ya'ni o'zbek tilida affiksalar yordamida, ingliz tilida yesa predlog va bog'lovchilar orqali so'zlar va gaplar bog'lanadi, masalan: *Three rings of marriage are the engagement ring, the wedding ring and the suffering – To'yning "bo'ldi – bo'ldi"si qiziq;*

- Tadqiq qilinayotgan tillarda boshqasida uchramaydigan, o'ziga xos maqol va matallarni ko'rishimiz mumkin: *The women cries before wedding and the man after; Marriage halves our griefs, doubles our joys and quadruples our expenses; Kelling keldisi yaxshi, to'yning bo'ldisi yaxshi; O'g'ilning to'yi – o'yin, qizning to'yi – qiyin.*

Qayd etish joizki, o'zbek va ingliz tillaridagi "To'y" konseptini verballashtiruvchi PB lar o'ziga xos noo'xshash jihatlarga ega va bu, o'z navbatida, qiyoslanayotgan tillarning tipologik jihatdan turli guruhlariga mansubligi bilan xarakterlanadi, ya'ni o'zbek tili sintetik tillar guruhiga kirsa, ingliz tili analitik til hisoblanadi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

- a) Turli lug'atlar va tilshunos olimlarning fikrlaridan kelib chiqqan holda ma'lum bo'ladiki, maqol va matallar shakl va ma'no jihatdan bir – biridan farq qiladi;

- b) qiyoslanayotgan ingliz va o'zbek tillarining har birida "to'y" konseptini verballashtiruvchi PB lar mavjud;

- c) "To'y" konseptini ifodalovchi maqol va matallarning har ikki tilda sodda, qo'shma, aralash va matn tipidagi qo'shma gap ko'rinishidagi turlari mavjuddir;

- d) ushbu tillarda bir ma'noni ifodalaydigan va shu bilan birga, bir – birini takrorlamaydigan, noo'xshash maqol va matallar uchraydi;

- e) O'zbek va ingliz tillaridagi "to'y" konseptini verballashtiruvchi paremiologik birliklarning izomorf va allomorf jihatlari mavjud, o'z navbatida, allomorfik xususiyatlar tillarning turli tipologik guruhlariga mansubligi bilan xarakterlanadi;

- f) "to'y" konseptini ifodalovchi ayrim konstituentlar lingvokulturemalar vazifasini ham bajara oladilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mieder W. Proverbs as cultural units or items of folklore. Phraseology: An international handbook of contemporary research. Berlin: de Gruyter, 2007.
2. Mirzaev T. va boshq. O'zbek xalq maqollari, T. – 2005.
3. Xojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent, 1985, 62.
4. Xoshimov G.M., Qochqorova Z. A. Turli tizimli tillarda "to'y" konseptini voqealantiruvchi paremiologik birliklarning qiyosiy tadqiqi. "Amaliy tilshunoslikning fanlararo masalalari: masofaviy ta'limdagi muammolar va ularning yechimlari" mavzusidagi II xalqaro onlayn ilmiy – amaliy anjuman materiallari. – Farg'ona, 2021.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati 1-5 jildlar. Toshkent, 2006. B.128.
6. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Nega shunday deymiz, T. – 1987.
7. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. O'zbek maqollarining izohli lug'ati, T. – 1990.
8. Арнольд И. В. Лексикология современного английского языка. Москва, 1986, 179.